

"INFAPRIM" AJ OPERATORI TOMONIDAN SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISHGA ROZILIK

Men, www.nutrilak.com/uz/ saytining Internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'idagi foydalanuvchisi (keyingi o'rinlarda – Foydalanuvchi), Operator – "INFAPRIM" Aksiyadorlik jamiyatiga (OGRN 1117746919366, INN 7709890250, manzil: 123060, Rossiya, Moskva shahri, Marshal Rıybalko ko'chasi, 2-uy, 8-korpus) quyidagilar uchun o'z roziligimni bildiraman:

Mening shaxsga doir ma'lumotlarimga quyidagi maqsadlarda ishlov berishga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), foydalanish, tarqatish (shu jumladan, uzatish), shaxssizlantirish, bloklash va yo'q qilishga:

1.1. mahsulotni sotib olish va sotish shartlarini kelishish, shartnomalarni tuzish, bajarish, bekor qilish yoki o'zgartirish (agar Operator ushbu shartnomalarning tomonlaridan biri bo'lsa);

1.2. Operatorning www.nutrilak.com/uz/ sayti ishlashini tashkil etish;

1.3. iste'molchilar talablarini qondirish.

1.1–1.3-bandlarda ko'rsatilgan maqsadlarda quyidagi shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga rozilik beriladi:

- familiya, ism, otasining ismi;
- jins;
- telefon raqami;
- elektron pochta manzili;
- yashash manzili;
- cookie fayllar;
- saytga tashrif buyuruvchining IP-manzili;
- shaxsga doir ma'lumotlar sub'ekti – soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR);
- bank hisob raqami rekvizitlari.

2. mening shaxsga doir ma'lumotlarimga avtomatlashtirilgan va avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berishga, shu jumladan, lekin faqat ular bilan cheklanmagan holda, Google Analytics, Yandex.Metrika, LiveInternet, Mail.ru Reytingi, Google Doubleclick internet-servislaridan, shuningdek Cookie fayllari orqali olingan ma'lumotlardan foydalanilgan holda ishlov berishga quyidagi maqsadlarda rozilik bildiraman:

2.1. Jamiyat Sayti mehmonlarining Jamiyat mahsulotlari va xizmatlari haqida xabardorlik darajasini oshirish;

2.2. tegishli reklama ma'lumotlarini taqdim etish va reklamani optimallashtirish;

2.3. statistik va boshqa tadqiqot maqsadlarida.

2.1–2.3-bandlarda ko'rsatilgan maqsadlarda quyidagi shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga rozilik beriladi:

- familiya, ism, otasining ismi;
- elektron pochta manzili (e-mail);
- telefon raqami;
- joylashuv manzili (geolokatsiya);
- <http://www.nutrilak.com/uz/> (keyingi o'rinlarda – Jamiyat Sayti) saytiga kirish manbai va qidiruv yoki reklama so'rovi haqidagi ma'lumotlar;
- foydalanuvchi qurilmasiga oid ma'lumotlar (shu jumladan, ekran o'lchamlari, versiyasi va foydalanuvchi qurilmasini tavsiflovchi boshqa atributlar);
- foydalanuvchi tomonidan bosilgan havolalar, ko'rilgan sahifalar, maydonlarni to'ldirish, ko'rsatilgan va ko'rilgan banner va videolar;
- auditoriya segmentlarini tavsiflovchi ma'lumotlar;
- sessiya parametrlari;
- kirish vaqti haqidagi ma'lumotlar;
- cookie fayllarda saqlanadigan foydalanuvchi identifikatori.

Men yozma so'rov yuborish orqali (elektron pochta manzili — info@nutrilak.com yoki pochta orqali) Operatoridan o'z shaxsga doir ma'lumotlarimga ishlov berishga oid quyidagi ma'lumotlarni olish huquqiga egaligimdan xabardorman:

- Operator tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berilayotganini tasdiqlash, shuningdek ushbu ishlov berish maqsadi;
- shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishning huquqiy asoslari va maqsadlari;
- Operator tomonidan qo'llanilayotgan ishlov berish usullari va ularning maqsadlari;
- Operatorning nomi va joylashgan manzili;

- tegishli shaxsga doir ma'lumotlar sub'ektiga oid ishlov berilayotgan ma'lumotlar, ularning kelib chiqish manbai (agar bunday ma'lumotlarni taqdim etishning boshqa tartibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilab qo'yilmagan bo'lsa);
- shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish muddati, jumladan ularning saqlanish muddati;
 - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan shaxsga doir ma'lumotlar sub'ekti huquqlarini amalga oshirish tartibi;
- amalga oshirilgan yoki rejalashtirilgan transchegaraviy uzatish haqidagi ma'lumotlar;
- Operator topshirig'iga binoan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berayotgan (Operator xodimlaridan tashqari) uchinchi shaxsning nomi yoki familiyasi, ismi, otasining ismi va manzili, agar ishlov berish bunday shaxsga topshirilgan yoki topshirilishi rejalashtirilgan bo'lsa;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar.

Men Operator menga tegishli shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni elektron pochta orqali Operator nomidan yuboriladigan axborot xatlarini yetkazish maqsadida uchinchi shaxslarga topshirishiga, agar bu xatlar men tomonidan rasmiylashtirilgan Buyurtmani bajarish bilan bog'liq bo'lsa, rozilik bildiraman va e'tirozim yo'q.

Men Operator mening shaxsga doir ma'lumotlarimga ishlov berishni O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga, jumladan 2019 yil 2 iyuldagi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-547-sonli "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq amalga oshirish kafolatini berishidan xabardorman. Ushbu rozilikni taqdim etishim sanasi men ro'yxatdan o'tish shaklida: «Men Ommaviy oferta shartnomasini* va Maxfiylik siyosatini* o'qidim va ularga roziman hamda shaxsimga doir ma'lumotlarga ishlov berilishiga ongli ravishda rozilik beraman» degan so'zlar yonidagi mos katakka belgi («belgi qo'yish») qo'ygan kunim hisoblanadi.

Men ushbu rozilikni ongli ravishda, o'z ixtiyorim bilan va o'z manfaatlarimda berayotganimni tasdiqlayman. Menga shaxsimga doir ma'lumotlarni himoya qilish borasidagi huquqlarim hamda o'zim haqimda yolg'on ma'lumot bergan taqdirda javobgarligim tushuntirildi.

Mazkur rozilik, Foydalanuvchi tomonidan Operatorga erkin shaklda yozma ravishda (pochta orqali yoki elektron pochta manziliga: info@nutrilak.com) imzolangan, shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni to'xtatish talabi bilan yuborilgan ariza asosida bekor qilinmaguncha amalda bo'ladi.

Ma'lumotlar Foydalanuvchining yozma so'rovi asosida info@nutrilak.com/uz/ manziliga yuborilganidan so'ng sayt administratsiyasi tomonidan 30 kalendar kuni ichida o'chirib tashlanadi.